

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

«UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI» FANIDAN

**«TARBIYA METODLARI »
MAVZUSIDAGI**

REFERAT

Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi O'.Qobilova
Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

dots. A.Abdumannotov

Kurs ishi kafedraning 2013-yil ____ iyunda bo'lib o'tgan ____-sonli
majlisida himoya qilindi va _____ foizga baholandi

Komissiya raisi: _____

A'zolari: _____

SAMARQAND – 2013

REJA

KIRISH

ASOSIY QISM:

- 1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.**
- 2. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.**
- 3. Tarbiyaning tarkibiy qismlari.**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e'tirof etilib, «Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish» davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi. Respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan. Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

Eramizdan oldingi IV-III asrlarda qadimgi Gresiyada quldorning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi qullar "pedagog" deb atalgan. U bolaning kamolotga yetishishiga mas'ul bo'lgan. Quldorning bolasini maktabga yetaklab olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni "didaskallar" (didayko-men o'qitaman) deyishgan. Feodalizm jamiyatiga kelib esa xar ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim-tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ular chex pedagogi Ya.A.Komenskiy ta'kidlaganidek, "Pedagog" deb nomlangan va bu so'z hozir ham ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifalarini aniqlash mazkur tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish;
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash;
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish;
4. Ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash;
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish;
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish;
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish;
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish;
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bevosita tarbiya metodlari va ularning tarkibiy qismlari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Tadqiqot maqsadi: Tarbiya metodlari mohiyatini yoritish va xalq pedagogikasida tarbiya metodlarini tasniflash hamda tarbiyaning tarkibiy qismlarini o'rganish

Tadqiqot obyekti: Umumiy pedagogika fani va tarbiya metodlari

Tadqiqot predmeti: Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari va tarbiyaning tarkibiy qismlari

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ta'lim sohasida ilgari surilgan g'oyalar; Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini yorituvchi qo'llanmalar; Tadqiqotchi olimlarning ilmiy asarlaridan iborat.

ASOSIY QISM:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga birorta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan

anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

2. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1.Tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish).

2.Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).

3.Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish).

4.Nasihati qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).

5.Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya'ni, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Bu holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'g'iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordi-yu, bu holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e'tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so'nggi chora sifatida qoralash va jazo metodida foydalanishga to'g'ri keladi. Biroq, bu eng so'nggi

chora. Zamonaviy pedagogika g'oyalariga ko'ra qoralash va jazo metodlarini so'nggi, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligi isbotlangan.

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasi sanaladi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo'llaniladi. O'quvchilarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichik va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim.

Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat. Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitusiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitusiyasining mohiyati tushuntiriladi.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi.

Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

a) etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

v) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqyealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);

g) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Suhbatlarning huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigiyenik mavzularda ham tashkil etilishi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish juda muhimdir. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boylar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio, televideniye, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak.

Ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma'lumotlar, adabiy asar, kinofilm va spektakllar qahramonlarining xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunada xalq pedagogikasi g'oyalaridan ham foydalaniladi. Ota-onalar o'z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Juda oddiy xulosa. Shu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq «uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi», «bola oldida birovlarining g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi», demoqchi. Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganligidir. Ushbu metodni qo'llash sinfning o'quvchilarining umumiy yoki jamoa a'zolarining shaxsiy

xususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo'llaniladi: «Shunday harakat qilish kerak», «Hamma shunday qiladi». O'smirlar bilan ishlaganda ma'naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma'nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo'llaniladi:

1) yangi ma'naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko'nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;

2) tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o'quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to'g'ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Maktab amaliyotida izohlash ishonitirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o'quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'smirlar ishonuvchan bo'lishadi. Pedagog ishonitirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko'rsatmani qabul qilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular («Did haqida bahs», «Mashhur bo'lish yo'llari», «Biz madaniyatli kishilarimizmi?» va hokazolar)da o'tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quvchilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5-6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba'zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o'zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisqa bo'lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday

holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

- 1) faoliyatda mashq qilish;
- 2) kun tartibi mashqlari;
- 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga

qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan metod hisoblanadi. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar, Mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini belgilash. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngillini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash metodidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglay olishi zarur. Shundagina o'quvchi o'zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o'z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo'ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o'z o'rniga ega. O'qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag'batlantiruvchi metodlardan foydalanadi. O'quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo'lishga intilishiga yordam beradi. Har qanday rag'batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi zarur, shuningdek, o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq

qo'llaniladi. Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham o'quvchining individual xatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo'llaniladigan eng so'nggi tarbiya metodi. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydalanish mumkin emas, o'quvchini qo'rqitish, g'azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o'quvchi qo'rqqanda yolg'on gapirishni o'rganadi, ikki yuzlamachi bo'lib qoladi.

Tanbeh berish – eng muhim jazo charosi. O'qituvchi o'qituvchiga yuzmayuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish – sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Hayfsan berish – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo'lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish - o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverib va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin. Jazo puxta o'ylab qo'llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka xarakterda, ya'ni, birgina usulni qo'llash asosida bo'lsin, o'quvchining aybiga mos, muvofiq bo'lishi, tez-tez qo'llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to'g'ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug'ilmasin va ular o'z ayblarini sezsин. Jamoada muhokama qilish va

jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Barcha holatlarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlariga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha'nini yerga urmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda yuqorida ta'riflangan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarini qisman qamrab oladi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

3. Tarbiyaning tarkibiy qismlari.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlariga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi. Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, moyillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida; «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgandir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir» deydi. Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deyiladi.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammallashtirish;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarning gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-axloqiy sifatlari (dadillik, qat'iyatlik, intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinf dan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta'minlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy axloqiy me'yorlardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloq (lot. «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllarida biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazimiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sherozi Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat,

mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir».

Amir Temur axloqi xusniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to'rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammallikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir. Xuddi shu ma'noda axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa,

rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqimizning «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qoʻrqma, minnatdan qoʻrq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahovuddin Naqshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» (koʻngling Ollohda, qoʻling mehnatda) degan hikmati bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli boʻlsa, u bilimni haqiqatga bagʻishlaydi, oʻz mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi boʻlmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi».

Taʼkidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda doʻstlik, birodarlik, jamoa boʻlib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson oʻzining va oʻzgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga oʻrgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida eʼtibor berishgan. Oʻzlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna boʻlganlar. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taʼkidlaganidek: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qoʻyib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oʻrtaga qoʻyilgan maqsadlarga erishish oʻzlariga bogʻliq ekanligini, yaʼni, bu narsa ularning sobitqadam, gʻayrat-shijoatiga, toʻla-toʻkis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bogʻliq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir».

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik oʻz mehnatini ayamaskliklari, ayniqsa, maktab oʻquvchilarida

mehnatga va mehnat ahliga to'g'ri munosabatni shakllantirishdagi mas'uliyatni chuqur his qilishlar kerak.

Estetik tarbiya (lot. «estezio» – «go'zallikni his etaman» ma'nosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqyelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rganish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqye'lik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklari va ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- shaxsda ijtimoiy voqyelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash,
- unda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumanlarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Xalqimizda, «Oq bo'lmasin, pok bo'lsin», «Pokliging – sog'lig'ing», «Sog' yuray desang, ozoda bo'l», «Yaxshi libos tanga oroyish» kabi maqollari

bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni qadrlashga o'rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go'zal jihatlarni ko'ra bilishnigina emas, balki ichki go'zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go'zallikni qadriga yetishga undaydi.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go'zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga yetishishda xolasi Mehribonning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan. Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qazish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va o'sha xayrli ishlarga rahbarlik qiladi. Shirin eng og'ir damlarda ham Farhodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo'lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz edi. Shirinning bu fazilatlari minglab qizlarga o'rnak bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) o'quvchilarga nazariy estetik bilimlarni berish;
- 2) ularda amaliy estetik ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o'quvchilarda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo'lish;
- estetik tuyg'uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etishi;
- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko'rinishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san'at, musiqa, xoreografiya to'garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Har qanday davlatning istiqboli yetuk ma'naviyatli, o'zida mukammal tarbiyaviy sifatlarni mujassamlashtirgan, rivojlangan davlatlar darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga bog'liqdir.

Bu jarayonning samaradorligi bevosita tarbiya metodlari va ularning o'rin foydalanish jarayoniga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish).
4. Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
5. Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya'ni, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Bu holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'g'iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordi-yu, bu

holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e'tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so'nggi chora sifatida qoralash va jazo metodida foydalanishga to'g'ri keladi. Biroq, bu eng so'nggi chora. Zamonaviy pedagogika g'oyalariga ko'ra qoralash va jazo metodlarini so'nggi, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligi isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi – millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat qilsin. «Tafakkur» jurnali, 1998, 2-son.
3. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. – Toshkent, 1998.
4. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent. 1999.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, 1999.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2010.
7. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, 2000.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997.
9. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
10. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent, 1992.
11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1996.
12. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. – Toshkent, 1992
13. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. –Toshkent, 1997.
14. Karimova V. Psixologiya. – Toshkent, 2010.
15. Munavvarov A.K. Pedagogika. – Toshkent, 1996.
- 10.
11. Ochilova T. Pedagogika. – Toshkent, 2005.
12. Usanov M. O'zbek ma'rifatparvarlari axloq va tarbiya haqida. – Toshkent, 1999.
13. Usanov R. Odoynoma. – Toshkent, 1995.
14. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent, 1997.

15. Yusupov E. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent, 1998.
16. Karimov A. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. – Toshkent, 1997.
17. Qurbonov M. Mafkura – dunyo tajribasiga nigoh. – Toshkent, 1998.
18. O'qish kitobi. – Toshkent, 2000.